

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kimyo-texnologiyasi” fakulteti

“Kimyoviy-texnologiya” kafedrasi

Himoyaga ruxsat etildi

Fakultet dekani

_____A.Mamaxanov

“ _____ ” _____ 2016-yil.

5320800-“Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” ta’lim yo’nalishi
bitiruvchisi

Olimov Addurashid Mutaljon o`g`li

**“Buyuk kelajak sersis MCHJ sharoitida badiiy nashrlarga
mo’ljallangan muqovalash bo’limini loyihalash ”**

Mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ A.Olimov

Ilmiy rahbar _____ dots.A.Bulanov

Kafedra mudiri _____ dots. D.Sh. Sherqo’ziyev

NAMANGAN-2017

MUNDARIJA

Kirish	3
I. ADABIYOT QISMI.....	6
II. ASOSIY USKUNALAR TANLASH.....	23
2.1 Loyiha uchun topshiriq.....	30
III. TEXNOLOGIK HISOBLAR.....	35
3.1. Texnologik jarayonning alohida mehnat sarfi bo'yicha aniqlash.....	37
3.2. Uskunalar sonini hisoblash.....	42
3.3. Talab etiladigan ishchilar soni.....	44
3.4. Bo'limining maydonini hisoblash.....	46
IV. IQTISODIY QISM.....	47
V. MEHNAT MUXOFAZASI VA EKOLOGIYA.....	57
VI.XULOSA.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	64

KIRISH

Mavzuni dolzarbligi: Ofset bosish usuliga asoslangan bosmaxonalarda asosan varaqli chop etish mashinalar ishlatishadi. Bunday mashinalar keng miqyosda har xil nashr mahsulotlarini chiqimsiz, iqtisod qilib chop etishga qulaydir. Rulonli ofset mashinalar esa ro‘znoma va kitob nashri uchun mo‘ljallangan, texnik vositalari yanada takomillashtirilgandir. Albatta, bu mashinalar qimmat turadi. Shuning uchun ham ulkan miqyosdagi ofset bosma usuliga mo‘ljallangan bosmaxonalardagina bunday mashinalar xizmatidan foydalaniladi. Varaqli chop etish mashinalari esa eng kichik tashrifnomadan tortib muhtasham – albom, katalog, bezakdor kitoblargacha qisqasi iste‘molchilarni barcha talablarini qondiradi, nashr mahsulotlarini istagancha chop etishni do‘ndiradi.

Ofset bosma usuli ham o‘zida bosish jarayonining tajribasini namoyish etadi: quyilgan bo‘yoq nashr ko‘rinishiga kelishi uchun ofset silindri oralig‘idan asosiy jarayon kechadi. Ofset bosma usulida chop etishning prinsipi tasvir avval maxsus ko‘rinishida ishlov beruvchi plastinaga olib boriladi, keyin esa ofset silindr yordamida bevosita tarqatuvchiga uzatiladi. To‘la rangli tasvir to‘rt asosiy rangdan iboratdir: havorang, sariq, qirmizi va qora. So‘nggisida laklangan holatda bo‘lishi ham mumkin.

Ofsetda istalgan qog‘oz navi yoki karton bo‘lsin, unda nashr mahsuloti sifatli tayyorlashga erishiladi. Ranglar va yarimtuslar a‘lo darajada singdira olinadi. Ofset usulida xuddi 1–2–3 tipik bo‘yoqlariday SMUK (lotincha qisqartma) bo‘yoqlarida yoki Pantone chop etish imkoni bor va to‘la to‘rt xil rangda ishni amalga oshiradi. Qolaversa, kerak bo‘lsa, qo‘shimcha ravishda “oltin”, “kumush” simon ranglardan, suv va yoyiluvchan yoki UF-lak kabi turli laklardan ham foydalaniladi. Ofset chop etishning boshqa bir afzalligi qog‘oz tanlamaydi, istalgan tur qog‘oz: ofset, gazeta, bo‘rlangan, karton, dizaynga moslanuvchan turlar, hatto vinildan foydalanish imkoni bor. Qog‘ozning qalinligi 45 g dan 250-300 g gacha bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o‘ylab yondashish natijasidir.

2015 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig‘ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o‘zgarishlari alohida e‘tiborga sazovordir.

Ishdan maqsad: Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining ijrosini tamirlash natijasida sanoat tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig‘i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2015 yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, engil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o‘sgani misolida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Telekommunikatsiya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zamonaviy korxonalar tashkil etilmoqda. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, amalda texnologik jihatdan yangilanmoqda.

Mamlakatimizda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar ham amaliy samarasini bermoqda. O'tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o'sish hajmi 14,4 foizni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ularning ulushi 35,5 foizga etdi. Bunday tovarlarning raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham tobora ortib bormoqda.

So'nggi 3 yilda mamlakatimizda mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat o'tgan yilning o'zida 455 ta korxonada mahalliyashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko'paydi va import o'rnini bosish bo'yicha yakuniy samara 5 milliard 300 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o'tgan yilning o'zida yurtimizda 26 mingdan ziyod kichik biznes sub'ekti ish boshladi, ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingtaga yetdi.

I. ADABIYOT QISMI


16447 GOSTi bo'yicha hamma nashrlar qurilishiga qarab kitob, jurnal va varaqli kabi uchta asosiy turlarga bo'linadi.

Kitob deb - turli o'lchamdagi bosma taboq mahsulotlari buklamlaridan mahkamlanib, to'plam ko'rinishiga ega bo'lgan nashrni jild yoki muqova tavaqalari bilan qoplanganiga aytiladi.

Varaqli nashrlar – har xil o'lchamdagi bir yoki bir necha varaqlarga bosilgan mahsulotlardan iborat bo'ladi, bir-biri bilan mahkamlanmaydi.

Shunday qilib, jurnal nashrlari kitob nashrlaridan o'zining doimiy o'lchami va belgilangan muddat orasida chiqishi bilangina farqlanadi.

Kitob-jurnal nashrlari o'z jildida kitob to'plami va jilddan iborat bo'lib, (qog'ozli) jildi odatda bir, ba'zi holda esa uch qismdan iborat bo'ladi, hamda taxlamga sim yoki yelim bilan mahkamlanadi. Muqovali nashrlar, taxlam va muqova tavaqasidan tashqari, o'ntadan oltitagacha bo'lgan birlashtiruvchi qismlarga ega bo'ladi (koreshok yoki o'rovchi mahsulotlar, ikkita mag'iz, qog'oz parchasi yoki gilza, ikkita forzats). Muqova tavaqasi ko'p holda to'rtta yoki oltita bo'lakdan tashkil topadi. Bular: tabaqa tomonlari va otstav, qoplama mahsuloti, koreshok va o'rovchi mahsulotlar, forzats kabilardir (rasm1).



Muqovali mashrlarning tuzilishi:

T - kitob tahlami; M - muqova tavaqasi;

- 1 - kitob daftarlari; 2 - forzats; 3 -koreshok mahsuloti; 4 – mag'iz;
5 – qog'oz parchasi; 6 - xat cho'p; 7 - karton tomonlari; 8 -qoplama mahsuloti; 9 - shpatsiya (karton tomonlari oralig'i); 10 - otstav; 11 - rasstav (karton tavaqa va otstav oralig'i); 12 - rant

Har qanday kitob bir-biri bilan birlashtirilgan kitob taxlami va muqovadan iborat bo‘ladi.

Kitob taxlami bir qancha daftarlar (rasm 1, 1) taxlamidan iborat. Taxlam muqova bilan koreshok mahsuloti (3) va forzatslar (2) yordamida birlashtiriladi. Taxlam koreshogiga koreshok mahsulotidan (dokadan) tashqari, mag‘iz (4) va qog‘oz parchasi (5) yopishtiriladi. Ba‘zi kitoblarda esa xat cho‘pi (6) ham bo‘ladi.

Muqova karton tavaqalari (7) va qoplama mahsulotidan (8) iborat.

Tavaqalar o‘rtasidagi koreshok qismini tashkil etuvchi joy shpatsiya (9) deb atalib, shpatsiya o‘rtasiga karton qog‘ozi yoki kartonli otstav (10) yelimlab yopishtiriladi. Otstav va tavaqalar orasidaga joy rasstav (11) hisoblanadi.

Taxlam muqovaga o‘rnatilgach, muqovaning taxlamdan chiqib turgan joylari uning rantlari (12) hisoblanib, qirqilgan muqovalarda ular bo‘lmaydi.

Nashrning texnologik ko‘rsatkichlari va ularning texnologik ishlovlarga ta’siri

Kitob-jurnal nashrlarining qurilmasini va bezalishini tanlashda uning tashqi ko‘rinishi va turi, qaysi o‘quvchilarga mo‘ljallanganligi, xizmat muddati, foydalanish jadalligi, to‘plam qalinligi, o‘lchami, adadi kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega.

Axborot mazmuni va vazifasiga qarab nashrlar: 1 - siyosiy; 2 – darslik, 3 - ma’lumotnoma; 4 - bolalar; 5 - adabiy-badiiy; 6 – rasmlı, 7 - ilmiy ommaviy; 8 - ilmiy; 9 - rasmiy; 10 - ishlab chiqarish nashrlariga bo‘linadi. Bu ma’lumotlar sohaviy standartlarda va yo‘naltiruvchi texnik ko‘rsatmalarda yanada tularoq o‘z ifodasini topgan.

Nashr turi bo‘yicha oddiy, murakkab va sovg‘a nashrlariga bo‘linadi.

O‘quvchi guruhining yoshiga qarab nashrlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi: I- maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar nashri; II - kichik yoshdagi maktab bolalar nashri; III - katta yoshdagi maktab bolalar nashri; IV - katta yoshdagi o‘quvchilar nashri.

Har bir o'quv guruhi uchun nashrni bezalishiga, mustahkamlashga va xidamligiga qo'yiladigan talablar ham har xil bo'ladi. Hoshiyalar o'lchami, nashr o'lchami va hajmi, to'plamni tikish usuli, muqova turi hamda tashqi bezak, rangdorligi kabilarni o'quvchilar guruhi belgilaydi.

Xizmat muddati - nusxalar bosmaxonadan chiqqandan to yaroqsiz holga kelguncha bo'lgan vaqt orasidir.

Kitob-jurnal nashrlaridan foydalanish sharoiti to'g'risida to'xtalsak, quyidagilarni aytish mumkin. Ba'zilar ko'p o'qilishi tufayli (masalan, maktab darsliklari) tokchalarda kam saqlansa, ba'zilar ham o'qiladi, ham saqlanadi (masalan, oliy o'quv yurtlari darsliklari, lug'atlar, texnika adabiyotlarining ayrim nashrlari va boshqalar). Qolganlari esa asosan ko'proq saqlanib, kamroq o'qiladi.

Foydalanish muddati va jadalligi bo'yicha nashrlarni quyidagi turlarga bo'lish maqsadga muvofiq:

Foydalanish muddati bo'yicha nashrlarni IV turga bo'lish mumkin:

I - 2 yilgacha - kichik muddatli; II - 10 yilgacha - o'rta; III - 20 yilgacha - katta; IV - 20 yildan ortiq - uzoq muddatli.

Nashrlarning texnologik ko'rsatkichlari - taxlam qalinligi, o'lchami, adadi kabilar nashr tuzilishini, texnologik jarayonni va uskunalarning turini aniqlab bersa, o'lchami va adadi shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etishni ham belgilaydi.

Taxlam qalinligi - forzatslar turi, yig'ish usullari va mahkamlashni belgilaydi. Taxlam qalinligini taxlam hajmini tashkil etuvchi betlari bo'yicha aniqlash mumkin. $C_b = V_n D$

V_n - nashr hajmidagi bosma taboqlar soni;

D - bosma taboq, ulushlari.

Daftarlarni yig'ib kitob taxlamini tayyorlash va ipda tikib kitob tayyorlashda qo'yiladigan texnik talablar

1. Berilgan hoshiya o'lchamlari bir xil bo'lgan va hajmi bir xil qilib tayyorlangan daftarlardan kitob taxlami yig'iladi. Taxlamni yig'ishda daftarlarning to'g'ri ketma-ketligi taminlanadi.

2. Forzatslarni tayyorlash va kitobtaxlami ilan birlashtirish. Qattiq muqovali kitoblarni tayyorlashda forzats uchun 120-160 g/m kv zichlikka ega qog'ozlardan foydalaniladi. Forzats o'lchami bo'yicha taxlamning qirqilishga bo'lgan o'lchamiga mos keluvchi ikki varaq qog'ozdan iborat. Forzatslarni elimlashda PVA yoki quyidagi tarkibdagi (%) lateks elimidan foydalanish mumkin.

Lateks	90,9
Suyak elimi	5,5
Suv.....	3,6

Buklangan forzatslar siqilgan holatda bosim ostida ushlab turiladi, keyin esa birinchi va oxirgi daftarlarga yoki taxlamning ikki cheka daftarlariga elimlanadi. Forzatslar elimlangan kitob taxlamlari yana bosim ostida ushlab turiladi.

3. Kitob taxlami koreshogiga elim surtish. Kitob taxlami koreshogiga elim surtish Koreshokning mustahkamligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Koreshokka surtish uchun 30-33 % konsentrasiyaga ega PVA emulsiyasidan yoki quyidagi tarkibli (%) lateks elimidan foydalanish mumkin:

Lateks elimi.....	75
PVA emul siyasi.....	6,5
Suv.....	18,5

Koreshogiga yupqa elim qatlami surtilgan taxlamlar koreshogi turli tomonlarga qilib, bir-0biridan 0,5-1 sm siljitib joylanadi va bosim ostida quritiladi.

4. Kitob taxlamini muqovaga o'rnatish. Kitob taxlamini muqovaga O'rnatish qo'lda yoki uskunada amalga oshirilishi mumkin. Bunda quyidagi tarkibdagi (%) lateks elimlaridan foydalanish mumkin:

Lateks SKS-30.....	90,9
Suyak elimi.....	5,5
Gliserin.....	1,0
Suv.....	2,6

20-30 yil oldin qattiq muqovali kitob tayyorlash texnologiyasini ikkita tipga ajratish mumkin edi: avtomatlashtirilgan (matbaa kombinatlarida) va qo'lda. Barcha yirik matbaa korxonalarida «Kolbus» tizimlari o'rnatilgan bo'lib, barcha darsliklar va boshqa kitblar shu tizimlarda tayyorlangan. Deyarli har bir matbaa kombinatlarida maket bo'linmasi mavjud bo'lib (hozirda ham bor), istalgan odam o'z nashrini muqovalash uchun ularga murojaat qilishi mumkin edi.



1-rasm. Matbaa korxonasida broshyuralash va muqovalash jarayonlari «Matbaachi-texnolog malumotnomasi» ga muvofiq tashkil qilinadi

Qattiq muqovali kitob tayyorlash texnologik zanjiri uchta bosqichdan tashkil topadi:

1. Kitob taxlami hosil qilinadi. Taxlamning varaqlari ofset bosma usulida, yoki hozirda raqamli bosma usulida tayyorlanishi mumkin. (bu jarayonning ishida varaqlarni buklash, taxlamni yig'ish, taxlamni ip bilan tikish ishlari amalga oshiriladi).

2. Qattiq muqova tayyorlanadi – karton tavaqalar ofset yoki raqamli bosma usulida bosilgan muqova qog'ozi bilan birlashtiriladi. Namuna sifatida Sshmedt firmasining tegichli uskunalaridan foydalanish mumkin. Qattiq muqovali kitob tayyorlash uchun uskunalar majmuasi yuqori unumdorlikdagi oqim tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagan kam adadli mahsulotlar (birdan bir necha ming nusxagacha) uchun juda samarali hisoblanadi.

3. Kitob taxlami muqova bilan birlashtiriladi. Ushbu operatsiyani amalga oshirish uskunasi misoli sifatida Tesnograf Tower taxlam o'rnatish uskunasini ko'rsatib o'tish mumkin, bu uskuna print-on-demand - kitoblarni talab bo'yicha bosish texnologiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ko'pchilik mutaxassislarning bildirayotgan fikrlariga ko'ra, ushbu yo'nalish yaqin vaqtlar ishida matbaa xizmatlari bozorining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi.



2-rasm

Sshmedt firmasining PraziSase SS 2 yarimavtomat muqova tayyorlash uskunasi

Tesnograf Tower uskunasi qattiq muqovalı kitob tayyorlash oqim tizimini olish imkoni bo'lmagan yoki o'lchamlari, tezligi yoki kitoblarning boshqa parametrlari bo'yicha bundan tizimlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagan muqovalash ustuxonalari, bosmaxonalar, yarimavtomat uskunalar bilan ishlayotgan hamda bajarilayotgan operasiyalarning yuqoriroq darajasiga o'tishga intilayotgan korxonalar uchun mo'ljallangan. Tesnograf Tower muqovalashning yangi konsepsiyasini, yangi elimlarni, yuqori sifatni, elimlashning yangi texnologiyasini o'zida mujassam etadi, gabaritlari kichik, imkoniyatlari keng.



3-rasm

Easy Tower taxlam o'rnatish moduli

Tower tizimi Easy Band kaptal elimlash uskunasi, Easy Tower taxlam o'rnatish modulini va Easy Press siqish-chiziqdash modulini birlashtiradi. Uskuna o'lchami 100 x 100 dan 350 x 420 mm gacha va qalinligi 6 dan 70 mm

gacha bo'lgan kitoblarni muqovaga o'rnatish uchun mo'ljallangan. Tizimning maksimal tezligi 400 sikl/soat. Tower tizimi koreshogi to'g'ri yoki dumaloqlangan taxlamlarni qattiq yoki integral muqovaga o'rnatishga mo'ljallangan.



4-rasm


Kaptal elimlash, siqish va chiziqlar alohida modullaridan tashkil topadigan Tower taxlam O'rnatish tizimi shunday ko'rinishga ega

Bu uskunaning o'ziga xosliklaridan biri chuki, boshqa buyurtmaga qayta sozlash 3daqiqqa talab qiladi. Uskunani boshqarish Sopilot dasturi orqali amalga oshiriladi, barcha parametrlar o'lchovlar amalga oshiriladigan maxsus stol yordamida kompyuterga kiritiladi.

Varaqlarni qirqish

Qog'oz varaqlari tekislangandan so'ng chetlarini qirqish va bo'laklarga bo'lish uchun qirquvchi uskunalariga uzatiladi. Chetlarini qirqish to'plamdagi varaqlar o'lchamini kishraytirish uchun yoki varaqlarning uringan chetlarini olib tashlash uchun qo'llaniladi. Qirqish esa varaqni bir necha qismga bo'lishdir. Bosilgan matn varaqlari, rasmlar, forzatslar, jildlar, bosilmagan qog'oz varaqlari va boshqa yarimmaxsulotlar bukishdan oldin qirqilishi xam mumkin.

Qirqish uskunalarining deyarli xammasi quyida keltirilgan bir xil texnologik shakl bo'yicha ishlaydi (2-rasm).



5-rasm

Bir pichoqli qirqish uskunasi shakli


Qog'oz to'pi tekislangandan keyin taler ustiga qo'yiladi va yon burchaklar hamda ort tirkak bo'yicha to'g'rilanadi. Qirqishdan oldin siqish to'sini qog'oz to'plamini qirqiladigan chiziq yonidan talerga mahkam bosadi. shu holda pichoq uchlagichga mahkamlangan ponasimon pichoq taxlamni qirqib, eng pastga tuchganida, uchlari bilan marzanga tegib turadi. Pichoq qirqish chog'ida ponasimon tomoni bilan qirqilgan qismni siljitib ajratadi. Pichoqlar ikki qavatli po'latdan tayyorlanadi. Asosi kam uglerodli bo'ladi, qirquvchi qismi esa, qattikligi oshirilgan po'latdan (6XS,-85SXF) tayyorlanadi. Pichoqning qirquvchi uchlari 4 mkm radiusli shaklda, yarim aylana shaklida bo'ladi. Qirqish jarayonida pichoq tig'ining radiusi 34 mkm gacha etishi mumkin za o'tmasligi ochib boradi. Bu holda pichoq qaytadan charxlanishi lozim.

Qirqish va chetlarini qirqish sifatini, ishchi har 1-1,5 soatdan keyin quyidagi ko'rsatkichlari: o'lchamlarining aniqligini, eni va bo'yi bo'yicha qing'ir bo'lmasligini, qirqimlar silliqiligini, siquvchi to'sinning varaqlar chetida va varaqlar yuzida izi qolmsligini hamda varaqlarning bir-biri bilan yopishmaganligini, qirqimning to'liq bo'lishini va pastki qatlamdagi qog'ozning tekis qirqilganligini muntazam tekshirib boradi.

Qirqishda ruxsat etilgan noaniqlik varaqlar o'lchami bo'yicha 1,0 mm, qirqilgan chetlarining uzunligi bo'yicha qing'irligi uchun 0,1% belgilinadi.

Bukish maqsadi va ishlatilishi

Bukish deb qog'oz varag'ini daftarga aylantirish jarayoniga aytiladi. Bukish kitob-jurnal ishlab chiqarishda nashrning asosiy qismini tashkil etuvchi daftarlar, forzatslar, yupka qog'ozli jildlar, varaq ulushlari, mindirma, kiydirma, elimlanadigan gil za kabilarni tayyorlashda ishlatiladi. Broshyuralash uchun ikki tomonlama bosilgan mahsulotlar bosish bo'limidan varaq yoki daftar shaklida kelishi mumkin. Nashr varaqli uskunalarda bosilgan hollarda daftarlarni tayyorlashga juda ko'p mehnat sarflanadi.



6-rasm

Varaqli buklash uskunalaringini ishlash prinsiplari:

a – kassetali buklash prinsipi;


b – pichoqli buklash prinsipi

Bosish g'altakli - rotasiyali uskunalarda amalga oshirilsa, buklashga hojat qolmaydi, chunki bu jarayon shu uskunalaridagi buklash dastgohlarida bajariladi.

Yig'ish turlari va ularning qo'llanilishi

Yig'ish deb, xamma daftarlarni yoki kitob taxlamining varaqlarini yoki yig'ma nashrlarni qat'iy belgilangan tartibda taxlashga aytiladi. Yig'ish ancha oson ish, lekin katta aniqlik talab qiladi, chunki noto'g'ri tartibda yig'ilgan nashrdan foydalanish mumkin bo'lmay qoladi va bunday taxlam chiqitga chiqib ketadi.

Yig'ishning ustma-ust va mindirilgan turlari mavjud. Mindirilgan yig'ishda ishni tashkil etilishiga qarab, daftarlar bir-birining ishiga yoki ustiga qo'yilishi mumkin. Bu xildagi yig'ish taxlam qalinligi bo'yicha fakat 2 - guruhga taaluqli bo'lib, qalinligi $T_p < 5\text{mm}$ hajmi $S_b < 80$ betgacha jildli xamda $T_p < 4\text{mm}$, $S_b < 64$ betgacha muqovali kitob, jurnal nashrlarida qo'llaniladi.



7-rasm. Buklangan daftarlarning to'g'ri yig'ilishini nazorat qilish belgilari

Ustma-ust yig'ishda daftar yoki varaqlar bir-birining ustiga malum tartibda taxlanadi. Taxlam qalinligi va betlar soni katta bo'lganligi sababli, kiydirilgan yig'ishdan foydalanish mumkin bo'lmaydi.


Taxlamlarni uch tomonlama qirqish

Taxlamlarni uch tomonlama qirqishdan maksad: daftardagi varoqlarni birlashtirib turuvchi buklamlarni yo'qotish buklanmagan notekis chetlarini qirqish kitobdan foydalanishga qulaylik yaratish; kitob taxlamini aniq o'lchamga keltirish; tekis qirqimga ega bo'lish. Bu jarayon sermehnat bo'lib, katta javobgarlik talab etadi, chunki kitobdan foydalanish muddatiga tasir etadi.

Qirqish sifatiga tasir etuvchi ko'rsatkichlar. Qirqish sifati oldingi ishlovlarni to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq bo'lib undan tashkari quyidagilar tasir etadi; taxlamdagi qog'oz sifati va qalinligi; bir vaqtda qirqilayotgan taxlamning balandligi; pichoq yuzasi; tig'ning o'tkirligi; marzanning holati va asosiy to'sindagi bosim.

Taxlamning koreshok tomoni bilan old kismini orasidagi balandlik farqi katta bo'lgan sari qirqish aniqligi kamayadi. Yupqa qog'ozli qalin taxlamlarni aniq qirqish, yuza zichligi yuqori bo'lgan qalin qog'ozli shunday taxlamlarni qirqishga nisbatan qiyinroq. Jildli nashrlarni va kitob taxlamlarini qirqish sifatiga qo'yiladigan talablar. Taxlam uch tomonlama qirqilgandan so'ng sifati quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: 1-taxlam eni va balandligi nashr o'lchamiga mos kelishi; 2-taxlamning to'g'ri burchakligi (qiychiq emasligi); 3-qirqish yuzasining tekisligi va silliqligi; 4-qirqimdagi varaq chetlarining yopishmaganligi, hamda jild va forzatslarda yirtilgan, g'ijimlangan joylarining bo'lmasligi; 5-koreshokning ezilmagan bo'lishi; 6-jild va qirqimlarda yirtiqlarning yo'qligi; 7-koreshokdagi elim qatlamining buzilmaganligi.

Turli o'lchamdagi nashrlar uchun taxlamning balandligi bo'yicha 10 mm qirqish belgilangan. Taxlam tepa va ostki tomonidan qirqishga moslanganligi sababli uning tepa qismidan ensizroq 3 mm, pastki qismidan esa 6-7 mm enlilikda qirqiladi.



8-rasm. Qirqish uskunasi ishlab chiqarish prinsipi

Taxlamning eni bo'yicha qirqish 5 mm ga teng. Taxlamning eni va balandligi bo'yicha aniqlik; nashr varoqli bosish uskunalarida bosilgan bo'lsa $\pm 1\text{mm}$; g'altakli uskunalarda bosilganda $\pm 2\text{mm}$; marzansiz qirqilganda esa taxlam balandligi bo'yicha $\pm 1,5\text{ mm}$; eni bo'yicha $\pm 2\text{ mm}$ deb belgilangan, burchak to'g'riligi maxsus burchaklar yordamida tekshiriladi. Noaniqlik, taxlam o'lchamining 1% gacha bo'lishiga ruxsat etiladi. Koreshok va unga yondashgan tamonlarning va qirqimlarning holati ko'z bilan baholanadi.


Taxlamni muqovaga o'rnatish

Zamonaviy texnologiyada kitob taxlami va muqova alohida tayyorlanib, kitob taxlami taxlamni muqovaga o'rnatish paytida muqova bilan birlashib ketadi. Taxlamni muqovaga o'rnatishning to'rtta usuli mavjud: 1 - oddiy (forzatslarga); 2 - gilzaga; 3 - yopiq; 4 - cho'ntaklarga. Deyarli xamma kitob nashrlari uchun o'lchami va xajmidan qat'iy nazar asosan oddiy o'rnatish qo'llaniladi. Qolgan uchtasidan juda kam xollarda foydalaniladi. Gilzaga o'rnatish kam nusxali, katta o'lchamli va katta hajmli, og'ir kitoblar uchun mo'ljallangan, chunki o'rnatish ishlari mexanizatsiyalashmagan.

Taxlam muqovaga dokali qopqoq va forzatslar bilan birga, taxlam koreshogiga va muqova otstaviga elimlangan gilza bilan xam ushlab turiladi.

"Yopiq" o'rnatishda taxlam, muqovaga koreshok maxsulotining qopqoq va forzatslar bilan birga taxlam koreshogining o'zi xam muqova koreshogiga qo'shimcha birlashtiriladi. Bu usuldan eski kitoblarda foydalanilgan, xozir kutubxona kitoblarini tuzatishda ishlatilib, ishlab chiqarishda qo'llanilmaydi. Cho'ntaklarga o'rnatish reklama nashrlari, maishiy mollar, kundaliklar, kitob turidagi taqvimlar, bloknotlar, yon daftarchalari va shunga o'xshash boshqa mahsulotlarni tayyorlashda ishlatiladi.

Kichik ishlab chiqarish korxonalarida, nusxasi kam bo'lgan nashrlarni elimlash, qo'lda cho'tka bilan bajariladi. Taxlam esa bo'rtmali taglikka qo'yiladi va elimlangandan so'ng muqovaga o'rnatiladi. Bunda taxlam muqovaga nisbatan simmetrik va zich o'rnachgan bo'lishiga harakat kilish kerak.



9-rasm. Taxlam o'rnatish uskunasi ish prinsipi

Tayyor kitoblarni koreshoklari xar tomonga qilib taxlangan xolda siqish va quritish uchun siqilgan xolda qoldiriladi. Elim muqovaga surilmaydi, chunki karton elimni tez chimib oladi va unda doka yopishmaydi. Dokani karton bilan elimlanishi mustaxkam bo'lmaydi. Elim sarfi sezilarli ochib ketadi va elim kantlarda qoladi. Ayrim xollardagina yupqa taxlamlarda muqovaga elim surtish mumkin.

1.1 Taxlam qalinligiga qarab nashr quyidagi turlarga bo‘linadi: 1-shakl

Jildli nashrlar				Muqovali nashrlar			
№	Tur nomi	Tq.mm.	Tb. bet	№	Tur nomi	Tq.mm	Tb.bet.
I	kichik	<5	<80	I	kichik	≤4	≤64
II	o‘rta	<14	≤224	II	o‘rta	≤12	≤192
III	katta	≤14	>224	III	kattaroq	≤40	≤640
IV				IV	katta	>40	>640

Nashr o‘lchami-kitob taxlami, risola va jurnalning uch tomonidan qir qilgandan keyingi o‘lchamlari bo‘lib, mm bilan belgilanadi. O‘lchamlaridan birinchisi taxlam eni, ikkinchisi esa balandligi sifatida qabul qilinadi. Amalda o‘lcham va bosma taboq ulushi tushunchasi keng qo‘llanadi, misol uchun 60x90/16. Kitob-jurnal nashrlarining o‘lchamlari besh turga bo‘lingan bo‘lib, dastlabki uchtasi GOST 5773 ga kiritilgan.

Nashr o‘lchami va bosma taboq ulushlari bo‘yicha quyidagi turlar mavjud

2-shakl

№	Tur nomi	O‘lcham (va bosma taboq ulushi)	
		eng kattasi	eng kichigi
I	Katta	84 x 108/8	70x108/16
II	o‘rta	70x 100/16	70x108/32
III	kichik	70 x 100/32	60x84/32
IV	jajji	84 x 108/64	60x84/64
V	Mitti	84 x 108/128	60x84/256
VI	Mitti	60 x 90/64	

Ko'p nashrlar o'rta o'lchamlarda chiqariladi. Ba'zi kichik o'lchamli nashrlarni ishlab chiqarish uchun ayrim mahsulotlarni ikkilangan yoki to'rtlangan holda umumiy uskunalardan foydalanish mumkin.

Nusxa soni - nashrning umumiy soni bo'lib, qo'lyozmani chop etishga tayyorlash chog'ida nashriyotda belgilanadi. Nashrlar nusxa soniga qarab to'rt turga bo'linadi: 15 mingtagacha bo'lgani - kichik; 50 mingtagacha bo'lgani – o'rta; 200 mingtagacha bo'lgani - katta va 200 ming nusxadan ortiq bo'lgani - ommaviy.

1.2 Jildli va muqovali nashrlar tayyorlash texnologik jarayonining yiriklashtirilgan shakli

Jurnal nashrlari, plakatlar, bukletlar, kartalar singari varaqli nashrlarni tayyorlashda bittadan uchtagacha broshyuralash-muqovalash ishlari bajarilsa, yig'ma nashrda bu ishlovlar soni 6-7 taga etadi.

Jildli nashrlarni tayyorlashda ishlovlar soni 11-14, muqovali nashrlarda 21-43 tagacha etsa, qirqimlari bo'yalgan, gilza va xat cho'pli, g'ilofga o'rnatilgan, sifati yaxshilangan hamda sovg'a nashrlarida ishlovlar soni 50 tadan ortiq bo'ladi.

Zamonaviy broshyuralash-muqovalash jarayonlarida buyurtmalarni chiqarishni tezlashtirish uchun, kitob-jurnal qurilmalarining ikki asosiy qismini tashkil etuvchi - kitob taxlami va muqova tavaqalari (yoki jild) barobar tayyorlanib, o'rnatish ishlarida esa, tayyor taxlam muqovaga mahkamlanadi (yoki jildlanadi) va deyarli tayyor nashrlar so'nggi ishlovga yuboriladi. Kitob-jurnal nashrlarining broshyuralash-muqovalash jarayonlari shakli quyidagicha:

Jildli nashrlar uchun:

1. Daftarlarni tayyorlash;
2. Jildni tayyorlash;
3. Taxlamni tayyorlash;
4. Taxlamni jildlash;
5. Qirqish (3 ta tomondan);
6. O'rab taxlash.

Muqovali nashrlar uchun:

1. Oddiy daftarlar tayyorlash;
2. Murakkab daftarlar tayyorlash;
3. Taxlam tayyorlash;
4. Taxlamga ishlov berish;
5. Muqova tayyorlash;
6. Taxlamni muqovaga o'rnatish;
7. Nashrlarni bezash;
8. O'rab taxlash.

Texnologik shaklda ko'rsatilgan har bir qism turli jarayonlar yig'indisi hisoblanadi.

Asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha mahsulotlarga qo'yiladigan talablar

Jildli va muqovali nashr qurilmalarini tayyorlashning texnik darajasi uning tashqi ko'rinishi, mustahkamligi, chidamligi va yaxshi ochilishi bilan belgilanadi.

Nashrning tashqi ko'rinishi faqat badiiy bezalish sifatigagina emas, shuningdek, qurilmalari va qismlarining geometrik o'lchamlariga ham bog'liq.


Kitob-jurnal nashrlarining va uning qismlarini tashqi kuch ta'siriga qarshi chidamlilik xossasi mustahkamligini ifodalaydi. Mustahkamlik deganda, mexanik mustahkamlik nazarda tutiladi. Qog'oz, muqova mahsulotlari va broshyuralash-muqovalash ishlab chiqarish mahsulotlari mustahkamligini miqdoriy ko'rsatkichini aniqlash uchun tortilishi, qisilishi yoki bukilishidagi buzuvchi kuchlanishlardan foydalangan qulayroq.

Mahsulotlarning chidamligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish uchun maxsus moslamalar yordamida tez eskirtirish sinovlari qo'llaniladi. Poliamid qoplamali, 5-turdagi muqova rasstavi bo'yicha 500 buklanishga chidash beradi. SHuning uchun bunday muqovalarni to'rt yilga mo'ljallangan maktab darsliklarini chiqarish uchun qo'llash maqsadga muvofiq. Qoplama mahsuloti gazlamali bo'lgan muqovalar 1,5 ming buklanishga chidash beradi va shuning

uchun 20 yildan ortiq muddatga xizmat qiladigan ensiklopedik nashrlar uchun ishlatish mumkin

Kitobning yaxshi ochiluvchanligi - o'quvchining kitobni yirtmasdan uning ichidagi ma'lumotlardan bemalol foydalana olish imkoniyatidir. Kitob varaqlaridagi matn 180° ochilgan muqovaga nisbatan parallel holda joylashsa, o'qishda qulaylikka erishish mumkin.

Ochiluvchanlik - nashr qurilmasini buzmaganda holda matnli-rasmlil ma'lumotlardan yaxshi foydalanish imkonini beradigan kitob-jurnal qurilmalari holatining qo'rsatkichidir. O'qishga qulaylik deganimizda, koreshokka tik ravishda mahkamlangan kitobdagi (rasm 2, 3) varoq (4) betlarining eng yaqin qatorlarni (2) chegaralari bilan varaqlarni koreshok joyidan birlashtirib (1), to'g'ri chiziq hosil qiluvchi α -burchagi tushuniladi.



10-rasm . Ochiluvchanlikni aniqlash shakli:

1-koreshok; 2-varaqdagi qatorlar; 3-mahkamlash o'rni; 4-varaqlar.

Amalda, ochilish chog'ida $\alpha=90^\circ$ bo'lgan kitoblar o'qish uchun qulay hisoblanadi. Ochiluvchanlikni aniqlash uchun turli asboblardan foydalaniladi. Qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, varaqning yirtilish kuchi 5N/sm ($0,5\text{ kg/sm}$) ga teng bo'lgan nashrni kerakli xizmat muddatini o'tashiga yaroqli deb hisoblanadi.

II. TEXNOLOGIK QISM

ASOSIY USKUNALAR TANLASH

Kompyuter Pentium IV



11-rasm

EPSON Perfection V500 skaneri



12-rasm

Spetsifikatsiyasi

- Skaner turi: Planshetli
- Skanerlash maydoni: 216 x 297 (A4, Letter), 24x36 mm o'lchamdagi 6 ta shaffof asl-nusxalar
- Maksimal o'lchami: A4
- Optik imkoniyati: 6400x9600 dpi
- Ranglarni taqdim etish (ichki va tashqi): 48 bit (281,5 trillion ranglar)
- Skanerlash tezligi:
- 35 mmli pozitiv plenka: chernovoy rejimda 55 sekund

- 35 mmlli negativ plenka: chernovoy rejimda 103 sekund

Printring 9000s rusumi pezoelektrik bosish texnologiyasini qo'llaydi. Bu NRnig termobosishdan afzalroq va sovlventli siyohlar bilan mosdir. Siyoh tomchilarining maksimal o'lchami 12 pl, maksimal BOSISH IMKONLI QOBILIYATI 720x720 dpi. Bu rejimda bosish tezligi 8m²/soat.

Texnik xarakteristikasi

Ishlab chiqaruvchi	HP
Printer nomi	DesignJet 9000s
Tipi	purkashli
Maksimal o'lchami	A0
oq-qora bosishning imkonli qobiliyati	720x720
rangli bosishning imkonli qobiliyati	720x720
Minimal siyox tomchisining xajmi (pl)	12
shaffof plenkalarda bosish	ha
Rulonli bosish	ha
siyox qutilar soni	6
USB interfeysi	ha
Windows da ishlash	ha
ishlashdagi quvvati (Vt)	1440
kutishdagi quvvati (Vt)	200
Eni (mm)	2540
Balandligi (mm)	1201
CHuqurligi (mm)	861
Og'irligi, kg	0.27

CtP - CRON 8-up 46



13-rasm

Model	4616E	4624E	4632E	4648E	4664E	4696E
Lazerli kanal miqdori	16	24	32	48	64	96
Eksponirlash tezligi, plastina/soat	9	13	17	23	29	38
	2400 dpi, plastina eniga 1030 mm					
	12	17	22	30	36	47
	2400 dpi, plastina eniga 745 mm					
	17	23	29	39	46	58
	2400 dpi, plastina eniga 510 mm					

Texnik spetsifikatsiya

Model	Seriya 46
Plastinaning maksimal o'lchami, mm	1160 x 940
Plastinaning minimal o'lchami, mm	450 x 370
Plastina qalinligi, mm	0.15 – 0.30
Plastinani eksponirlash turi	Analogli, yuqori sezgirli uf
Pozitsionirlash	YUqori aniqlikdagi avtomatik pozitsionirlash
Pozitsionirlash aniqligi, mm	0,01
Havo sovitish va tozalash sistemasi	Qurilgan
Vakuumli bosish	Ha
Plastinalarni avtomatik sozlash	Opsiya (50 ta plastina)
Bosish imkonli qobiliyati, dpi	2400 / 2540 / 2800 i 3000
Stoxastik va gibridli rastrlash	Ha
Ko'rinish nuqtasi	1% - 99%
Ishlash xarorati, °S	18 – 25
Ruxsat etilgan namlik	20 – 80% namlash kondensatisiz
Elektropitanie	380V +/-5%; 50/60 Gs; 5,3 kVt
Gabaritlari (DxSHxV), mm	1895 x 1140 x 1070
Og'irligi, kg	1240 atrofida

RYOBI 920 ofset bosish mashinasi



14-rasm

RYOBI 920 rusumli ofset bosish mashinasi ko‘p funksiyali va RYOBI PCS-G bosishning boshqarish sistemasiga ega.

Ushbu ko‘p bo‘yoqli mashina yuqori ishlab chiqarish parametriga va mehnat sarfini kamaytirish moslamasiga ega.

RYOBI PCS-G boshqarish pulti orqali adad ottisklarni bosishga tayyorlashdan to boshqa jarayonlarni, ya’ni har xil turdagi qog‘ozlarni oddiy va qulay almashtirish sistemasi, ofset polotnoni yuvish moslamasi, bo‘yoq apparatidagi valiklarni yuvish, privodkani sozlash, umumiy va zonali bo‘yoq uzatishni sozlash, namlash parametrlarini sozlash ishlarini bajaradi.

RYOBI Semi-RPC poluavtomatik qoliplarni almashtirish sistemasi.

Qog‘oz o‘lchami va bosish bosimi avtomatik ravishda o‘rnatiladi.

920-y rusumli mashinaning texnologik imkoniyatlari ancha iqtisodiy effektga ega:

- 920x640 o‘lchami bosish imkoniyatlarini kengaytiradi. A1 o‘lchamdagi varaqli mahsulotlarni, A4 o‘lchamdagi 8-polosali va letter bosish imkoniga ega;

- Ushbu mashinalarda qalinligi 0,04 mm qog‘ozlardan to 0,6 mm karton qog‘ozlariga bosish;

- RYOBImatic namlash apparati qolip yuzasiga namlash rastvorini bir tekislikda yoyilishini kafolatlaydi;

- Liniyada laklash ishlab chiqarish unumdorligi oshiradi.

Texnik xarakteristikalari

	922	924	925	926
Bo‘yoq seksiya miqdori	2	4	5	6
Varaqning maksimal o‘lchami, mm	920x640			
Varaqning minimal o‘lchami, mm	410x290			
Maksimal bosish maydonii, mm	900x615			
Ishlab chiqarish unumdorligi*, varaq/soat	12000			
Qog‘oz qalinligi, mm	0,04-0,6			
Qolipning o‘lchami va qalinligi, mm	910x665x0,44 (podlojka bilan)			
Ofset polotnning o‘lchami va qalinligi, mm	941x681x1,95			
Bo‘yoq sistemasi	19:4			
Namlash sistemasi	4:1, uzluksiz plenkali Ryobi-matic			
Samonakladdagi stapel balandligi, mm	800			
Qobul qilishda stapel balandligi, mm	900			
Gabaritlari* DxSHxV, mm	5874 x3010 x1870	7646 x3010 x1870	8532 x3010 x1870	9418 x3010 x1870
Massa* (netto), kg	12600	21600	21600	30600

VEGA – qog‘oz qirqish mashinasi



15-rasm

Ushbu mashinalarda dunyoga mashhur firmalarining OMRON, TOSHIBA, SCHNEIDER, MOLLER elektronikasi qo‘llaniladi.

Rusumiga ko‘ra mashinalar hajmi 3000 dan 8000 gacha dasturlarga mo‘ljallangan xotira bloki bilan moslangan. Yuqori mehnat muhofazasi va ishchi personalining ishlashi uchun qulay sharoit yaratilgan.

Листоподборочная машина серии COL-TEC



Параметры:	В4 портретная	В3 портретная
Формат листа макс/мин, мм:	250 x 350 / 80 x 100	350 x 500 / 100 x 120
Количество станций, штук:	6 - 40	6 - 32
Тип материала:	Единичные листы или сфальцованные тетради	
Высота стапеля, мм:	70	
Производительность, циклов/час:	до 4 000	до 3 500
Длина 12-ти станций, мм:	3 625	5 075
Ширина, мм:	1 350	1 480
Электропитание:	220 В	

LOYIHA UCHUN TOPSHIRIQ

No	Mahsulot nomi	O'lchami	Adadi	Xajmi, f.b.t.	Rangdorligi	Nomlar soni
1	Kitob (yumshok muqova)	60x84 1/16	12 000	10	4+4	45
2	Albom	60x90 1/16	4 000	4	4+4	30
3	Jurnal	60x90 1/16	6000	5	4+4	45
4	Risola	60x84/16	20 000	4	4+2	50

Texnologik sxemani tuzish



Texnologik jarayon kartasi

Jarayon nomi	Uskuna rusumi	Material eritmalar va	Ishlov berish rejimi	Sifatga qo'yilgan talab
Matn terish	Kompyuter Pentium IV	kompyuterda, yozish mashinkasida	kompyuterda	Ko'pfunksiyali, shriftlar parametrlarini va boshqa elementlarni yuqori darajada bajarish
Skanerlash	ESK, planshetli skaner, barabanli skaner, proeksion skaner	planshetli skaner	Katta o'lchamdagi aslnusxalarni skanerlash, narxi o'rtacha	ESK, planshetli skaner, barabanli proeksion skaner
Dizayn ishlab chiqish	IMAC 12.2 27" QUAD-CORE INTEL CORE I5	Platforma Intel yoki Apple mas. Corel Draw, Photjshop. Illustrator dasturlarida	Apple Mac. Photoshop Corel Draw	Reproduksiya ishlari uchun maxsus echimlar, ranglar mosligi
Korrektura nusxa olish	HP DesignJet 9000s	Qog'oz, toner	1200x1600 dpi	Rangli nusxa ofset bosma nusxasiga yaqin bo'lishi kerak
